



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№8(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 318 sahifa,
3-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Sun'iy intellekt muhitida o'sib kelayotgan Alfa avlodining shaxsiy va psixik rivojlanishi	10
<i>Jo'rayeva Dilfuza Abdug'aniyevna</i>	
Teng yonli uchburchak xossalari va kesmaning o'rta perpendikulyari xossalariidan foydalangan holda masalalar yechish	13
<i>Namozov Diyorbek Baxtiyor o'g'li</i>	
Xiva xonligining siyosiy boshqaruv modeli: Buxoro va Qo'qon xonliklari bilan qiyosiy tahlili.....	17
<i>Mutallibjonov Boburmirzo</i>	
Boshlang'ich sinfda informatika fanini o'qitish metodikasi	26
<i>Nosirova Feruza Baxadir qizi</i>	
Funksional savodxonlik asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini professional rivojlantirishning strukturaviy-faoliyatli modeli.....	30
<i>Gafurova Mahfuza Abbosovna</i>	
Mutafakkirlar asarlarida bolalar faolligini shakllantirishda o'yinlardan foydalanishning yoritilishi	35
<i>Ravshanova Uldona Narziboyevna</i>	
Ijtimoiy-madaniy qadriyatlar variatsiyasi sharoitida talabalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish mazmuni	39
<i>Vorisova Barnoxon Olimjon qizi</i>	
Huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya integratsiyasi orqali yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish	43
<i>Habibjonov Izzatbek Dilshodjon o'g'li</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning tanqidiy va refleksiv tafakkurini rivojlantirishda antfragil yondashuvning o'rni.....	51
<i>G'ulomjonova Ziyodaxon A'zamjon qizi</i>	
Badiy adabiyotning yoshlar tarbiyasidagi didaktik imkoniyatlari	57
<i>Irisboyeva Xotiraxon Utbasarovna</i>	
Talabalarining o'quv amaliyoti jarayonida kasbiy mobilligini rivojlantirishda dual ta'limga asoslangan metodikani takomillashtirish	61
<i>G'ofurov To'liqinjon</i>	
Didactic Opportunities of Content and Language Integrated Learning (CLIL) Technology in English Language Teaching	67
<i>Ismailova Aziza Dilshodovna</i>	
Фольклорные источники в историко-географическом изучении памятников Устюрта.....	72
<i>Канаатов Есимкан</i>	
Xorijiy davlatlar tajribasida o'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish amaliyoti.....	76
<i>Abdullayev Amirulla Xazratovich</i>	
Algoritmik faollikni rivojlantirishning zamonaviy metodik yondashuvi	81
<i>Pardayeva Kamola Sultonovna</i>	
Sun'iy intellekt va startap ekotizimi asosida talabalarining tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish	86
<i>Imomaliyev Quvvat Choriyevich</i>	
Maktab ta'limida o'qitish sifatini baholashning ko'p tarmoqli raqamli-diaagnostik tizimini joriy etish va boshqarish	91
<i>Nurmetov Tursunbek Kenjayevich</i>	
Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarining o'qish samaradorligini oshirish	96
<i>Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi</i>	
Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining malakaviy va pedagogik amaliyotlari uzviyligini ta'minlashning metodik modeli	99
<i>Mardonov Maqsudbek Maxmudovich</i>	
Nogironligi bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatishning nazariy-metodologik asoslari	103
<i>Umarova Umidaxon Ibaydullayevna</i>	



Chizmachilik darslarida animatsiyali modellarni qo'llashning pedagogik asoslari	108
<i>Xo'janiyozov Shokir Rustamovich</i>	
Fanlararo aloqadorlik asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish metodikasi va uning eksperimental samaradorligi	114
<i>Isroilova E'zoza Akmal qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida ingliz tilini o'qitishda veb-kvestlar va raqamli keyslarni samarali qo'llash usullari	119
<i>Shermatova Ra'no O'ktam qizi, Baxodirova Gulnoz Kamalovna</i>	
Xalq og'zaki ijodi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini takomillashtirish texnologiyalari	124
<i>Abduraximova Muxabbat Allayevna</i>	
Bo'lajak fizika o'qituvchilarini nanotexnologiya sohasidagi bilimlarni taqdim etishga va o'qitishga tayyorlash metodikasi	129
<i>Sottarov Abduvali Umirqulovich</i>	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning raqamli tafakkurini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish	133
<i>Nuraliyeva Feruza Abdusalim qizi</i>	
Emotsional intellekt va raqamli kommunikatsiya: yoshlar psixologiyasida zamonaviy tendensiyalar	137
<i>Qahharov Nuriddin Sherbek o'g'li</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda "o'quv burnout" (o'qishga nisbatan charchash va sovish) holatining oldini olishda motivatsion pedagogik texnologiyalar	142
<i>Babajanova Gulmira Muratbayevna</i>	
Linguopragmatic Errors in Artificial Intelligence-Generated Translations	147
<i>Aytmuxamedova Durdona Jasur qizi</i>	
Клинические особенности аллергодерматозов у лиц, проживающих в Ташкентской области	153
<i>Абдуллаева Ф. Б., Саипова Н. С.</i>	
Tyutorlik faoliyatining pedagogik ahamiyati	160
<i>Ashirova Gulnora Xayrullayevna</i>	
Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbga yo'naltirish metodikasini takomillashtirish	164
<i>Nurmuratova Iroda Nuriddinovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashda diqqat yetishmasligi va giperfaollik: mnemotexnik korreksiya	169
<i>Egamberdiyeva Xuriyat Egamberdiyevna, Kaxxarova Ozoda Abdimo'minovna</i>	
The Historical Development of Translation	173
<i>Sharopova Gulnoza Odil qizi</i>	
Integratsiya jarayonlarini samarali boshqarishga yo'naltirilgan metodik tizim	176
<i>L. T. Xudaybergenova</i>	
Multimodal matnlarni tanlash va dalillarga asoslangan o'quv topshiriqlari metodikasini ishlab chiqish	180
<i>G'ofurova Dilshodaxon Toxirjon qizi</i>	
Bo'lajak tibbiyot xodimlarining diagnostik kompetensiyalarini shakllantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining o'rni: ilmiy adabiyotlar sharhi	186
<i>Xalimova S. A.</i>	
The Role and Opportunities of Artificial Intelligence (AI) in the Management of Educational Institutions	191
<i>Abduqahorova Lobar Oybekovna</i>	
Malaka oshirish jarayonida maktab direktorlarining mediakompetentligini rivojlantirishning tashkiliy-boshqaruv mexanizmi	197
<i>Xidirova Maftuna Ilhom qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya berishda STEAM va an'anaviy usullarning qiyosiy tahlili	205
<i>Boltayeva Nasiba Ilhom qizi</i>	

Kasb-hunar ta'limida elektromobillar va robototexnika yo'nalishlarini rivojlantirish: xalqaro hamkorlik tajribasi va "2+1" dual ta'lim modeli.....	209
<i>Dushanov Nuriddin Qo'ldoshovich, Suvonov Murodjon Abdurahmon o'g'li, Ibragimova Dinara Rustam qizi, Karimova Oygul Ro'ziyevna, Avliyoqulov Muxammad Mustafoyevich</i>	
Multimodal matnlarni tanlash va dalillarga asoslangan o'quv topshiriqlarining metodikasini ishlab chiqish ...	212
<i>G'ofurova Dilshodaxon Toxirjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda "ijodiy faoliyat" va "kreativlik" konseptlarining nazariy-metodologik interpretatsiyasi...	218
<i>Komila Aytmuratova</i>	
Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi asosida rivojlantirishga doir mashqlar tipologiyasining samaradorligi.....	222
<i>Maxmudova Feruza Salimjonovna</i>	
O'zbek va rus nasrida oilaviy munosabatlarning badiiy-psixologik talqini	227
<i>Qurbonova Malika Toxir qizi</i>	
O'quv-biluv kompetensiyasining nazariy asoslari va zamonaviy pedagogik yondashuvlar	230
<i>Saydaxmedova Barno Batirovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matematik tayyorgarligi tarkibi: TIMSS va PISA xalqaro baholash dasturlari asosidagi nazariy tahlil	235
<i>Abdusattarova Zaynab</i>	
Fizikani o'qitishda barqaror taraqqiyot tushunchalarini rivojlantirish: O'zbekiston kontekstida adabiyotlar tahlili.....	243
<i>Avazova Oltin</i>	
Futbolda 11–12 yoshli darvozabonlarni texnik-taktik jihatdan tayyorlashda maxsus mashqlarning ahamiyati	247
<i>Ibragimov Qosimbek Isroil o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanni o'qitish jarayonida sun'iy intellekt yordamida foydalanib nazariy bilimlarni hayotga tatbiq qilib o'rganish metodlari	253
<i>Jo'layeva Munira Choriyevna</i>	
Creativity-Oriented Language Teaching in Karakalpak Folk Pedagogy	256
<i>Khodzhanizayeva Aygul Aytmuratovna</i>	
Bo'lajak pedagoglarda estetik kompetentlikni rivojlantirishning metodik asoslari.....	264
<i>Saidova Dilorom Erkinovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik muammolarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	269
<i>Farhodova Sevara Qo'ziboy qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarida tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari.....	274
<i>Norkulova Jasmina Sodikovna</i>	
Umumta'lim maktablarida matematik kechalar orqali o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish samaradorligi.....	277
<i>Saytniyozov Adham Annamuhomet o'g'li</i>	
Tibbiy va pedagogik ta'lim jarayonida "Case Study" metodini qo'llash orqali talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish	282
<i>Shaymatova Azizaxon Rustambekovna</i>	
Dutor ijrochiligining amaliy-texnik jihatlariga e'tibor qaratish va ushbu jarayonni rivojlantirish	286
<i>Shodiyeva Shahinabonu Shoirjon qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik texnikani shakllantirish texnologiyalari	293
<i>Turimbetova Sveta Muhammedaliyevna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi hamkorlik menejmentini takomillashtirishda direktor o'rinbosarining roli	297
<i>Xolnazarova Shaxnoza Baxodir qizi</i>	
Адаптивная геймификация в школьном обучении физике	304
<i>Индира Бахадуровна Ерленесова</i>	
Bo'lajak pedagoglarda qadriyatlar tizimining shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar	309
<i>Taylanova Sh. Z.</i>	



BO'LAJAK PEDAGOGLARDA QADRIYATLAR TIZIMINING SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR

UDK: 159.9:37.013
BBK: 88.4:74.00

Taylanova Sh. Z.
P.F.D., professor

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak pedagoglarda qadriyatlar tizimining shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy psixologik omillar nazariy jihatdan tahlil etiladi. Kognitiv, emotsional-motivatsion, ijtimoiy-madaniy va shaxsiy-identifikatsion omillarning bo'lajak o'qituvchi shaxsini shakllantirishdagi o'rni yoritiladi. Maqolada xorijiy va mahalliy olimlarning qadriyatlar psixologiyasi sohasidagi nazariy qarashlari umumlashtiriladi hamda oliy pedagogik ta'lim amaliyoti uchun tavsiyalar ishlab chiqiladi. Maqola psixologlar, pedagoglar, metodistlar va dastur ishlab chiquvchilarga mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: qadriyatlar tizimi, bo'lajak pedagoglar, psixologik omillar, kognitiv rivojlanish, emotsional intellekt, pedagogik psixologiya, shaxs, motivatsiya.

Abstract: This article provides a theoretical analysis of the key psychological factors influencing the formation of value systems in future pedagogues. The roles of cognitive, emotional-motivational, socio-cultural and personal-identificational factors in shaping the personality of future teachers are examined. The article synthesizes theoretical perspectives of foreign and local scholars in the field of value psychology and develops recommendations for higher pedagogical education practice. The article is intended for psychologists, educators, methodologists and curriculum developers.

Key words: value system, future pedagogues, psychological factors, cognitive development, emotional intelligence, pedagogical psychology, personality, motivation.

Аннотация: В данной статье проводится теоретический анализ ключевых психологических факторов, влияющих на формирование системы ценностей у будущих педагогов. Рассматривается роль когнитивных, эмоционально-мотивационных, социально-культурных и личностно-идентификационных факторов в становлении личности будущего учителя. В статье обобщаются теоретические взгляды зарубежных и отечественных учёных в области психологии ценностей и разрабатываются рекомендации для практики высшего педагогического образования. Статья предназначена для психологов, педагогов, методистов и разработчиков учебных программ.

Ключевые слова: система ценностей, будущие педагоги, психологические факторы, когнитивное развитие, эмоциональный интеллект, педагогическая психология, личность, мотивация.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatning shiddat bilan rivojlanib borishi ta'lim tizimiga yangi va murakkab talablar qo'y-moqda. Globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar fonida pedagogik faoliyatning mazmuni ham keskin o'zgarib bormoqda. Bugungi kunda o'qituvchi nafaqat bilim manbai, balki shaxsiy ibrat va ma'naviy-axloqiy yo'naltiruvchi sifatida ham ko'riladi. Aynan shu nuqtai nazardan, pedagogning o'z qadriyatlar tizimi uning kasbiy faoliyati samaradorligini, sinf muhitini va o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishini bevosita belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari, xususan, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun-ning yangi tahriri (2020) va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" pedagogik kadrlardan nafaqat yuqori kasbiy kompetentlik, balki yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni ham talab etadi. Bu esa bo'lajak pedagoglarning qadriyatlar tizimini shakllantirishga ta'sir etuvchi psixologik omillarni chuqur va tizimli o'rganishni dolzarb ilmiy muammoga aylantiradi.

Qadriyatlar psixologiyasi sohasida jahon fanida ko'plab fundamental tadqiqotlar amalga oshirilgan. M. Rokich, G. Allport, S. Shvarts, A. Maslou, D. Super kabi olimlar qadriyatlarning shaxs rivojlanishidagi o'rni, ularning ierarxik tuzilishi va shakllanish mexanizmlari masalalarini atroflicha tadqiq etganlar.



Mahalliy psixologiya fanida esa B. Qodirov, N. Egamberdiyeva, M. Yo'ldoshev, E. G'. G'oziyev, V. Kari-movalarning ilmiy ishlari bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-shaxsiy rivojlanishi masalasida muhim nazariy zamin yaratadi. Shunday bo'lsa-da, bu omillarni kompleks va tizimli tarzda - kognitiv, emotsional, ijtimoiy va identifikatsion jihatlarni birlashtirgan holda - tahlil qiluvchi nazariy ishlar hali yetarli emas.

Maqolaning maqsadi - bo'lajak pedagoglarda qadriyatlar tizimining shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillarni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etish, ularning o'zaro bog'liqligini ko'rsatib berish va oliy pedagogik ta'lim amaliyoti uchun uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Maqolaning vazifalari quyidagilardan iborat: birinchidan, qadriyatlar psixologiyasiga oid jahon va mahalliy nazariy manbalarni umumlashtirish va tahlil qilish; ikkinchidan, bo'lajak pedagoglarda qadriyatlar tizimi shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy psixologik omillarni to'rt guruhga ajratib ko'rsatish; uchinchidan, ushbu omillarning o'zaro bog'liqligi va O'zbekiston kontekstidagi o'ziga xosligini yoritish; to'rtinchidan, oliy pedagogik ta'lim amaliyoti uchun ilmiy asoslangan uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish.

Maqolaning ilmiy yangiligi shundan iboratki, bunda bo'lajak pedagoglar qadriyatlar tizimiga ta'sir etuvchi omillar ilk marotaba to'rt komponentli model doirasida - kognitiv, emotsional-motivatsion, ijtimoiy-madaniy va shaxsiy-identifikatsion jihatlarni bir butun sifatida birlashtirgan holda - O'zbekiston milliy-madaniy kontekstida tahlil etiladi. Bunday yaxlit, kompleks yondashuv mavjud adabiyotlarda kam uchraydi va pedagogika psixologiyasi faniga muayyan nazariy hissa qo'shadi.

Maqolaning amaliy ahamiyati shundaki, unda ishlab chiqilgan tavsiyalar bevosita pedagogika oliy ta'lim muassasalari amaliyotiga - o'quv dasturlarini takomillashtirish, psixologik xizmat tizimini rivojlantirish, mentorlik dasturlarini joriy etish kabi sohalarida - qo'llanilishi mumkin. Shu bilan birga, maqola pedagog-psixologlar, kurs o'qituvchilari va ta'lim menejerlari uchun ham foydali uslubiy manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

"Qadriyat" (value) tushunchasi psixologiya faniga nisbatan kech - XX asrning o'rtalarida - kirib kelgan bo'lsa-da, bugungi kunda u shaxs psixologiyasining markaziy kategoriyalaridan biriga aylangan. Umuman olganda, qadriyatlar shaxsning dunyoqarashida, xatti-harakatlarida va hayotiy qarorlarida yo'naltiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Ular shaxsga nimaning muhim, nimaning to'g'ri yoki noto'g'ri, nimaga intilish kerakligi haqida ichki ma'lumotnoma vazifasini bajaradi (Rokeach, 1973).

M. Rokichning klassik ta'rifiga ko'ra, qadriyat - bu mavjudlikning ma'lum bir holatini yoki xulq-atvorning ma'lum usulini boshqalardan ustun deb bilishning barqaror e'tiqodidir. U qadriyatlarni ikki asosiy turga ajratadi: terminal qadriyatlar (erishmoqchi bo'lgan yakuniy maqsadlar, masalan, baxtli oila, bilim, erkinlik) va instrumental qadriyatlar (bu maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan xatti-harakat usullari, masalan, halollik, mehnatsevarlik, mas'uliyat). Pedagogik faoliyat nuqtai nazaridan bu ikki tur qadriyatning uyg'unligi ayniqsa muhim, chunki o'qituvchi nafaqat o'z maqsadlarini, balki ularga erishish yo'llarini ham o'quvchilariga namoyish etadi.

S. Shvartsning (1992) qadriyatlarning umuminsoniy nazariyasi bu sohadagi eng yaxlit va keng qo'llaniladigan modellardan biridir. Shvarts o'nta asosiy qadriyat turini ajratib, ular o'rtasidagi mos va ziddiyatli munosabatlarni ko'rsatib beradi. Pedagoglar uchun eng muhim qadriyatlar turkumi - "xayrixohlik" (yaqinlarga g'amxo'rlik qilish) va "universalizm" (barcha odamlarga va tabiatga mehr ko'rsatish) - bir-birini to'ldiruvchi va pedagogik faoliyatning mohiyatini aks ettiruvchi qadriyatlar sifatida alohida ajralib turadi.

G. Allportning (1961) shaxs nazariyasida qadriyatlar insonning eng chuqur motivatsion tuzilmasi sifatida talqin etiladi. Allportning fikricha, yetuk shaxs o'z qadriyatlar tizimini ongli tarzda tuzadi va bu tizim hayotning barcha sohalarida - kasbiy, oilaviy, ijtimoiy munosabatlarda - izchil namoyon bo'ladi. Bo'lajak pedagoglar uchun bu g'oya ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi: kasbni ongli tanlagan va o'z pedagogik qadriyatlarini anglagan o'qituvchi o'z ishida ancha barqaror va samarali bo'lishi tabiiy.

S. L. Rubinshteynning shaxs va faoliyat birligi konsepsiyasi (1946) qadriyatlarni faoliyat jarayonida shakllanadigan va o'zgaradigan hodisa sifatida ko'radi. Bu yondashuv bo'lajak pedagoglar uchun muhim nazariy xulosa beradi: qadriyatlar bir martalik tushuntirishlar orqali emas, balki doimiy faoliyat - pedagogik amaliyot, o'z ustida ishlash, refleksiya - jarayonida shakllanadi.

A. N. Leontyevning (1977) faoliyat nazariyasida esa qadriyatlar "shaxsiy ma'no" kategoriyasi orqali izohlanadi: insonning faoliyatida ma'no hosil bo'lgan joyda, uzoq muddatda qadriyat paydo bo'ladi.

Qadriyatlarning barqarorligi va o'zgaruvchanligi o'rtasidagi dialektika ham nazariy jihatdan muhim masaladir. Bir tomondan, qadriyatlar shaxsning nisbatan barqaror ichki tuzilmasi hisoblanadi va ular sekin o'zgaradi. Boshqa tomondan, muhit, tajriba va bilimlarning o'zgarishi bilan qadriyatlar ham rivojlanadi, ba'zilari kuchayadi, ba'zilari zaiflashadi, yangilari paydo bo'ladi. Bu dialektikani anglash bo'lajak pedagoglarga o'z qadriyatlar tizimini "qotib qolgan" emas, balki doimiy o'sib boruvchi, hayot bilan birgalikda rivojlanuvchi hodisa sifatida ko'rishga yordam beradi.



Qadriyatlarning tuzilishi ham nazariy jihatdan murakkab masala hisoblanadi. Shvarts (1992) ko'rsatganidek, qadriyatlar ierarxiyasi odamdan odamga o'zgaradi, ammo asosiy qadriyatlar to'plami madaniyatdan madaniyatga nisbatan barqaror. O'zbekistonda o'tkazilgan qiyosiy madaniyatshunoslik tadqiqotlari (Karimova, 2008) shuni ko'rsatadiki, o'zbek yoshlarida "oila", "ta'lim" va "mehnatsevarlik" qadriyatlari terminal qadriyatlar ierarxiyasida doimiy ravishda yuqori o'rin egallaydi - bu bo'lajak pedagoglarning kasbiy qadriyat tizimi uchun ham mustahkam, qulay zamin hisoblanadi.

1. Kognitiv omillar

Kognitiv omillar bo'lajak pedagoglarning qadriyatlar tizimi shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Bu guruhga, avvalo, tanqidiy fikrlash qobiliyati va refleksivlik kiradi. J. Dyuning "aks ettiruvchi fikrlash" (reflective thinking) konsepsiyasi ta'limda keng qo'llaniladi: bu nazariyaga ko'ra, o'qituvchi o'z tajribasini doimiy tahlil eta oladigan, sabab-natija bog'liqligini ko'ra biladigan va o'z qadriyatlarini qayta ko'rib chiqa oladigan shaxs bo'lmoqi kerak. Refleksiv fikrlash qobiliyati odamga o'zining qanday qadriyatlarga asoslanib ish tutayotganini anglash, bu qadriyatlarning manbalarini tushunish va zarur hollarda ularni ongli ravishda o'zgartirish imkonini beradi.

Tanqidiy fikrlash - bu shunchaki savollar berish emas, balki mavjud g'oyalar, e'tiqodlar va qadriyatlarni asos hamda dalillar nuqtai nazaridan ko'rib chiqish qobiliyatidir. Bo'lajak pedagog tanqidiy fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lganda, u o'ziga taqdim etilayotgan qadriyatlarni - jamiyatdan, ommaviy axborot vositalaridan, tengdoshlaridan - ko'r-ko'rona qabul qilmaydi, balki ularni chuqur o'ylab, o'z shaxsiy tajribasi va bilimi bilan solishtiradi. Bu jarayon ko'pincha inqirozli - ammo ijodiy - bo'lib, uning natijasida shakllanadigan qadriyatlar tizimi ancha puxta va barqaror bo'ladi.

G. Kellyning kognitiv murakkablik nazariyasi (1955) bo'lajak pedagoglarga ham bevosita taalluqli. Ko'p qirrali, murakkab tafakkurga ega shaxslar qadriyatlar ziddiyatlarini yanada konstruktiv hal eta oladi, turli nuqtai nazarlarni hisobga oladi va o'z qadriyatlar tizimini izchilroq tartibga sola oladi. Oddiyroq, bir o'lchovli tafakkurga ega shaxslarda esa qadriyatlar tizimi ko'pincha tashqi ta'sirlar ta'sirida beqaror bo'lib qoladi. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida falsafa, etika, psixologiya va madaniyatshunoslik fanlarini o'qitish aynan kognitiv murakkablikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Metakognitiv qobiliyatlar - ya'ni o'z fikrlash jarayonlarini kuzatish va boshqarish ko'nikmalari - ham qadriyatlar shakllanishida muhim o'rin tutadi. Oliy ta'lim jarayonida tanqidiy tahlil, munozara, esse yozish va o'z nuqtai nazarini asoslab berish kabi faoliyat turlari talabalarning metakognitiv rivojlanishiga, shu orqali esa qadriyatlar tizimining chuqurroq va barqarorroq shakllanishiga xizmat qiladi. Xususan, "Pedagogik etika" va "Kasbiy o'z-o'zini anglash" kabi kurslar talabani "Men nima uchun o'qituvchi bo'lmoqchiman?", "Men ta'limda nimani muhim deb bilaman?" kabi fundamental savollar ustida chuqur o'ylashga undaydi.

2. Emotsional-motivatsion omillar

Emotsional intellekt (EI) bo'lajak pedagog uchun kasbiy jihatdan eng muhim psixologik xususiyatlardan biridir. D. Goulmenning (1995) ta'rifi ko'ra, emotsional intellekt - o'z his-tuyg'ularini va boshqalarnikini tanish, tushunish hamda boshqarish qobiliyatidir. Pedagogik faoliyatda empatiya - boshqa kishining holatini his qila olish qobiliyati - markaziy o'rin egallaydi. Empatiyasi yuqori bo'lgan o'qituvchi o'quvchining ichki dunyosini tushuna oladi, uning ehtiyojlariga sezgir munosabatda bo'ladi va, eng muhimi, o'z pedagogik qadriyatlarini - insonparvarlik, g'amxo'rlik, adolat - amalda namoyon qila oladi. Bu esa faqat o'qituvchi sifatidagi samaradorlikni emas, balki o'quvchining butun shaxsiy rivojlanishini ham ijobiy tomonga yo'naltiradi.

Emotsional intellektning muhim tarkibiy qismi - o'z his-tuyg'ularini boshqarish qobiliyati - bo'lajak pedagog uchun alohida ahamiyatga ega. Sinf oldida turgan o'qituvchi har kuni ko'plab emotsional qiyinchiliklarga duch keladi: g'alati savollar, intizomni buzuvchi o'quvchilar, ota-onalar bilan murakkab munosabatlar, mas'uliyatning og'irligi. Ushbu holatlarda o'z his-tuyg'ularini nazorat qila oladigan, ulardan konstruktiv foydalana oladigan o'qituvchi pedagogik qadriyatlarini - sabr-toqat, adolatlilik, vazminlik - amalda namoyon eta oladi. Aksincha, his-tuyg'ularini boshqara olmagan o'qituvchi o'zi e'tiqod qilgan qadriyatlardan amalda voz kechib qo'yishi mumkin.

R. Rayan va E. Desining o'z-o'zini belgilash nazariyasi (Self-Determination Theory, 2000) motivatsiyaning uch turini ajratadi: ichki motivatsiya (faoliyatning o'zi zavq va ma'no beradi), tashqi motivatsiya (tashqi mukofot yoki jazolardan qo'rqish) va amotivatsiya (harakatga undovchi kuch yo'q). Bu nazariya nuqtai nazaridan, pedagoglik kasbini ichki motivatsiya asosida - o'qituvchilikning o'zidan ma'no topib - tanlagan talabalar o'z qadriyatlar tizimini ancha chuqurroq va barqarorroq shakllantiradi. Kasbni tashqi bosim ostida tanlagan talabalar esa tez-tez qadriyatlar ziddiyatini boshdan kechiradi. Shu sababli pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ichki motivatsiyasini aniqlash va uni qo'llab-quvvatlash juda muhim psixologik-pedagogik vazifa hisoblanadi.



Kasbiy motivatsiya bo'lajak pedagog qadriyatlari shakllanishining nafaqat sharti, balki natijasidir ham. Dastlabki motivatsiyasi tashqi bo'lgan talaba ham vaqt o'tishi va pedagogik amaliyotda ma'noli tajribalar to'plash orqali ichki motivatsiyani rivojlantirishi mumkin. Bu jarayon, odatda, talaba o'quvchi bilan chuqur insoniy muloqotga kirishganida, biror qiyin o'quvchiga yordam bera olganida yoki o'z darsining samarali chiqqanini his etganida ro'y beradi – ana shunday “ichki mukofot” tajribalari pedagogik qadriyatlarning ildiz otishiga xizmat qiladi.

A. Maslouning ehtiyojlar ierarxiyasi (1943) ham bu muammoni tushunishda foydali asos bo'lib xizmat qiladi. Maslouning fikricha, shaxs o'zini ro'yobga chiqarish (self-actualization) ehtiyojiga yetganida, u o'z hayotiga va faoliyatiga nisbatan chuqur ma'no izlay boshlaydi. Bo'lajak pedagog uchun bu bosqich - kasbiy faoliyatda o'z imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarish istagi - pedagogik qadriyatlarning mustahkamlanishiga muhim zamin yaratadi. Shu bilan birga, Maslou nazariyasi shuni ham ko'rsatadiki, o'qituvchining ijtimoiy tan olinish, xavfsizlik va iqtisodiy barqarorlik kabi quyi ehtiyojlari qondirilmasa, u yuqori darajadagi qadriyatlar - ijodkorlik, insonparvarlik, o'z-o'zini takomillashtirish - bilan yashay olmaydi. Bu pedagoglik kasbining ijtimoiy nufuzi va moddiy ta'minoti masalasini ham qadriyatlar psixologiyasi doirasida ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi.

3. Ijtimoiy-madaniy omillar

Insonning qadriyatlar tizimi hech qachon vakuumda shakllanmaydi - u hamisha ma'lum bir ijtimoiy-madaniy muhitda paydo bo'ladi va rivojlanadi. A. Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasi (1977) qadriyatlarning kuza-tish va taqlid orqali o'zlashtirilishini ko'rsatib beradi. Bola bolalikdan ota-onasi, o'qituvchilari va atrofidagi muhim shaxslarning xulq-atvori, munosabatlari va hayotiy prioritetlarini kuzatib, o'z qadriyatlar tizimini asta-sekin shakllantirib boradi. Aynan shu mexanizm tufayli ko'p hollarda “o'qituvchilar oilasida” voyaga yetgan bolalar ham pedagog kasbini tanlaydi - ular bolaligidan pedagogik qadriyatlarni va pedagoglik kasbining ma'nosini kuzatib ulg'aygan bo'ladi.

O'zbekiston jamiyatida oila instituti qadriyatlar uzatilishining eng asosiy kanali hisoblanadi. “Mahalla” instituti, milliy an'analar, kattalarni hurmat qilish, jamoachilik va mehnatsevarlik kabi qadriyatlar avloddan avlodga oilaviy muhit orqali o'tib keladi. G. Hofstedening (2001) madaniyatlararo tadqiqotlari O'zbekistonni yuqori kollektivism ko'rsatkichiga ega mamlakat sifatida belgilaydi - bu esa bo'lajak pedagoglar qadriyatlar tizimida jamoaviy va insonparvarlik qadriyatlarining nima uchun ustuvor o'rin egallashini tushuntiradi. Bir xil predmetni o'qitadigan, ammo turli madaniy muhitlarda voyaga yetgan o'qituvchilarning pedagogik qadriyatlar ierarxiyasida sezilarli farqlar kuzatilishi aynan shu madaniy kontekstning ta'sirini ko'rsatadi.

Tengdoshlar muhiti va kasbiy jamoa madaniyati ham bo'lajak pedagog qadriyatlar tizimiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Oliy ta'lim muassasasida birgalikda ta'lim olayotgan talabalar guruhi o'z “mikromadaniyatini” shakllantiradi - bu muhitda qaysi qadriyatlar nufuzli, qaysi xulq-atvor namunalari qo'llab-quvvatlanishi talabaning individual qadriyatlar rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Shu sababli pedagogika oliy ta'lim muassasalarida sog'lom, ma'naviy-axloqiy jihatdan yuksak guruh madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilishi zarur.

Oliy ta'lim muhitida pedagoglar bilan muloqot ham qadriyatlar shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, ma'naviy-axloqiy sifatlarini namoyon eta oladigan, o'z kasbiga mehr bilan yondashuvchi ustozlar yosh talabalar uchun muhim qadriyatli namuna bo'lib xizmat qiladi. N. Noddingsning “g'amxo'rlik pedagogikasi” (caring pedagogy, 2003) konsepsiyasi aynan shu g'oyani – o'qituvchi-talaba munosabatidagi g'amxo'rlik, e'tibor va hurmatning yosh pedagog shakllanishidagi rolini - atroflicha yoritadi. Bundan tashqari, axborot jamiyatida ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy madaniyat va global axborot oqimlarining ta'siri ham o'sib bormoqda - bu ba'zan milliy-an'anaviy qadriyatlar bilan ziddiyatli vaziyat yaratishi va bo'lajak pedagogda qadriyatlar parchalanishiga olib kelishi mumkin. Bunday holatda oliy ta'lim muassasasining qadriyatlar integratsiyasidagi roli yanada muhim bo'lib qoladi.

4. Shaxsiy-identifikatsion omillar

E. Eriksonning psixojjtimoiy rivojlanish nazariyasi (1968) bo'lajak pedagoglar ta'lim olayotgan talabalik davrini (18–25 yosh) “identifikatsiya - rollar aralashuvi” bosqichi sifatida belgilaydi. Bu davrda yosh inson kim ekanligini, qaysi qadriyatlarga sodiq ekanligini, qaysi kasbiy va ijtimoiy rollarni qabul qilishini aniqlashga harakat qiladi. Identifikatsiya inqirozi muvaffaqiyatli hal etilsa, shaxs o'z qadriyatlari, maqsadlari va hayotiy yo'nalishiga nisbatan barqaror, aniq va ongli munosabatga ega bo'ladi. Pedagogika yo'nalishidagi ta'lim bu jarayonda hal qiluvchi ahamiyatga ega: u talabaga o'zining “pedagog” identifikatsiyasini sinab ko'rish, pedagogik qadriyatlarni o'ziga singdirib borish uchun qulay strukturaviy muhit yaratadi.

D. Superning kasbiy rivojlanish nazariyasi (1957, 1990) bo'lajak o'qituvchilarning “kasbiy Men-konsepsiyasi”ni, ya'ni o'zini pedagog sifatida anglashini, shakllanish bosqichlari bilan bog'laydi. Kasbiy identifikatsiya qanchalik kuchli bo'lsa, bo'lajak pedagog pedagogik qadriyatlarni shunchalik chuqurroq va barqarorroq o'zlash-tirishga moyil bo'ladi. Buning aksi ham to'g'ri - qadriyatlar tizimi shakllanmagan talabada kasbiy identifikatsiya



ham zaif bo'lib, u o'zini haqiqiy pedagog sifatida his qila olmaydi. Superning fikricha, kasbiy Men-konsepsiyasini shakllantirish uchun tajriba, amaliyot va o'z-o'zini baholash sikllari zarur - bu esa pedagogik amaliyotning ta'lim jarayonidagi rolini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shaxsiy o'sish va o'z-o'zini anglash jarayoni ham identifikatsion omillar guruhida muhim o'rin tutadi. C. Rojersning (1961) insonga yo'naltirilgan psixologiya nazariyasida "to'liq faoliyat ko'rsatayotgan shaxs" (fully functioning person) konsepsiyasi bo'lajak pedagog uchun muhim ideal sifatida taqdim etilishi mumkin: bu - o'ziga nisbatan ochiq, o'z his-tuyg'ularini to'la his eta oladigan, doimiy o'sishga moyil va hayot tajribalariga qiziqish bilan yondashuvchi shaxs. Bunday shaxsiy yetuklik bo'lajak pedagogning qadriyatlar tizimini ham yanada chuqur va xilma-xil qiladi.

Vaqt perspektivasi ham shaxsiy-identifikatsion omillar guruhida alohida o'rin tutadi. F. Zimbardoning vaqt perspektivasi nazariyasiga (1999) ko'ra, kelajakka yo'naltirilgan shaxslar uzoq muddatli maqsadlarga intiladi, hozirgi qiyinchiliklarni kelajakdagi natijalar uchun zaruriy bosqich deb qabul qiladi. Pedagoglik - o'z tabiatiga ko'ra kelajakka yo'naltirilgan kasb: o'qituvchi bugun ekkani yillar o'tib unib chiqadi, avlodlar o'tib kamol topadi. Shu sababli bo'lajak pedagog uchun kelajakka yo'naltirilgan vaqt perspektivasining shakllanishi uning pedagogik qadriyatlar tizimining barqarorligi bilan chambarchas bog'liq. "Men bu ishni bugun nima uchun qilyapman?" savoliga emas, "Men bu ishni kelajak avlod uchun nima uchun qilyapman?" savoliga javob bera oladigan o'qituvchi o'z kasbiy qadriyatlariga ancha mustahkam ildiz otgan bo'ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolani tayyorlashda nazariy-tahliliy metodologiyadan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini qadriyatlar psixologiyasi, shaxs rivojlanishi, kasbiy identifikatsiya, ijtimoiy o'rganish va motivatsiyaga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar tashkil etdi. Tadqiqot doirasida xorijiy va mahalliy olimlarning bo'lajak pedagoglarda qadriyatlar tizimining shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillarga oid ilmiy ishlari o'rganildi.

Maqolada, avvalo, ilmiy manbalarni nazariy tahlil qilish usuli qo'llanildi. Ushbu usul orqali M. Rokich, G. Allport, S. Shvarts, A. Maslou, D. Super, E. Erikson, A. Bandura, R. Rayan, E. Desi kabi xorijiy olimlarning qadriyatlar, motivatsiya, shaxsiy va kasbiy rivojlanishga oid qarashlari o'rganildi.

Shuningdek, B. Qodirov, N. Egamberdiyeva, M. Yo'ldoshev, E. G'. G'oziyev va V. Karimovanning bo'lajak o'qituvchilar kasbiy-shaxsiy rivojlanishiga oid ilmiy ishlari tahlil qilindi. Mazkur manbalardagi asosiy g'oyalar, ilmiy tushunchalar va nazariy xulosalar umimlashtirildi.

Qiyosiy taqqoslash usuli xorijiy va mahalliy ilmiy yondashuvlarning o'xshash hamda farqli jihatlarini aniqlash maqsadida qo'llanildi. Xususan, G'arb psixologiyasida ilgari surilgan individual rivojlanish, shaxsiy erkinlik, kasbiy identifikatsiya va o'zini ro'yobga chiqarish bilan bog'liq nazariyalar O'zbekistonning milliy-madaniy muhiti, oilaviy qadriyatlari, mahalla instituti va jamoaviylik tamoyillari bilan taqqoslandi. Ushbu taqqoslash natijasida bo'lajak pedagoglarda qadriyatlar tizimini shakllantirishda universal psixologik qonuniyatlar bilan milliy-madaniy omillarni uyg'unlashtirish zarurligi aniqlandi.

Tizimlashtirish va tasniflash usuli yordamida bo'lajak pedagoglarning qadriyatlar tizimiga ta'sir etuvchi psixologik omillar to'rtta asosiy guruhga ajratildi: kognitiv, emotsional-motivatsion, ijtimoiy-madaniy va shaxsiy-identifikatsion omillar. Har bir guruhga tegishli psixologik xususiyatlar alohida tahlil qilinib, ularning bo'lajak o'qituvchi shaxsining kasbiy va ma'naviy-axloqiy rivojlanishidagi o'rni yoritildi.

Umimlashtirish usuli orqali turli nazariy qarashlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik aniqlandi. Jumladan, tanqidiy fikrlash va refleksivlikning emotsional intellekt, ichki motivatsiya, ijtimoiy muhit va kasbiy identifikatsiya bilan chambarchas bog'liqligi asoslandi. Ushbu omillarning alohida emas, balki yaxlit tizim sifatida ta'sir ko'rsatishi haqidagi ilmiy xulosaga kelindi.

Tadqiqot natijalari nazariy manbalarni tahlil qilish, qiyosiy taqqoslash, tasniflash, tizimlashtirish va umimlashtirish asosida shakllantirildi. Mazkur metodlar bo'lajak pedagoglarda qadriyatlar tizimining shakllanish mexanizmlarini kompleks yoritish, asosiy psixologik omillarni aniqlash hamda oliy pedagogik ta'lim amaliyoti uchun ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqorida tahlil etilgan to'rt guruh psixologik omillar bir-biridan ajralgan holda emas, balki o'zaro ta'sirda harakat qiladi va yaxlit tizim sifatida bo'lajak pedagogning qadriyatlar tizimini shakllantiradi. Bu o'zaro ta'sirni S. Shvartsning (2012) "qadriyat integratsiyasi" konsepsiyasi yordamida tushuntirish mumkin: kognitiv rivojlanish emotsional intellektning o'sishiga, emotsional intellekt esa ijtimoiy munosabatlarning sifatiga ta'sir ko'rsatadi, natijada shaxsiy identifikatsiya mustahkamlanadi va qadriyatlar tizimi barqaror shaklini oladi. Bu integratsiya jarayoni bir yilda yoki bir kursda tugab qolmaydi - u bo'lajak pedagog kasbiy rivojlanishining uzluksiz hamrohi bo'lib qoladi.



Kognitiv va emotsional omillarning o'zaro bog'liqligi ayniqsa muhim. Tanqidiy fikrlash qobiliyati yuqori bo'lgan talaba o'z emotsional holatlari va qadriyatlar ziddiyatlarini ham chuqurroq tahlil eta oladi. Aksincha, emotsional intellekti rivojlangan talaba o'zgaralar nuqtai nazarini tushunib, o'z kognitiv sxemalarini kengaytiradi. Bu ikki omil birgalikda ishlasa, bo'lajak pedagog zamonaviy pedagogik muammolarni - bola huquqlari, inklyuziv ta'lim, madaniyatlararo muloqot - ancha pishiq va qadriyat asosida hal eta oladi.

O'zbekiston sharoitida madaniy-an'anaviy omillarning ta'siri G'arb psixologik modellarida tasvirlangandan ancha kuchli ekanligini ta'kidlash lozim. Bu esa mahalliy amaliyotda G'arb psixologik-pedagogik modellarini aynan ko'chirib olishdan qochib, ularni milliy-madaniy kontekstga moslashtirib qo'llash zarurligini ko'rsatadi. Xususan, O'zbekiston pedagogika oliy ta'lim muassasalarida qadriyatlar tizimini shakllantirishga yo'naltirilgan dasturlar ishlab chiqilganida milliy an'analar, "mahalla" instituti va oilaviy qadriyatlar bilan zamonaviy psixologik yondashuvlarning uyg'unligi ta'minlanmogi lozim. Aks holda, talaba ikki dunyo o'rtasida - an'anaviy va zamonaviy, milliy va global - qadriyatlar ziddiyatini kuchli his etib, identifikatsion inqirozga tushib qolishi mumkin.

Shu o'rinda pedagogik amaliyotning o'rni alohida ta'kidlanishga loyiq. Nazariy bilim bilan haqiqiy pedagogik tajribaning uyg'unlashuvi qadriyatlar tizimi shakllanishida o'rnini bosib bo'lmaydigan rol o'ynaydi. Ko'pgina psixologlarning ta'kidlashicha, qadriyatlar tushuntirish orqali emas, balki tajriba orqali o'zlashtiriladi. Bo'lajak pedagog haqiqiy sinf muhitida o'quvchi bilan muloqotga kirishganida, darsni rejalashtirganida, qiyinchiliklarga duch kelganida va ularni yengganida o'zining pedagogik qadriyatlarini amalda sinab ko'radi va mustahkamlaydi. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida amaliyotni nazariy o'qitish bilan parallel ravishda, erta bosqichdan boshlab olib borish shu sababli strategik ahamiyatga ega.

Yana bir muhim jihat - bo'lajak pedagoglarning qadriyatlar ziddiyati muammosi. Shaxs qadriyatlar ierarxiyasini shakllantirish jarayonida turli qadriyatlar o'rtasidagi ichki ziddiyatni (intrapersonal value conflict) boshdan kechiradi. Masalan, "shaxsiy erkinlik" va "mas'uliyat", "o'z manfaati" va "jamoaviy manfaat", "yangilikka intilish" va "an'analarga sadoqat" o'rtasidagi ziddiyat bo'lajak pedagog uchun katta psixologik qiyinchilik tug'dirishi mumkin. E. B. Fantalovning (2001) tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, qadriyatlar ziddiyatining ichki muammoga aylanishi shaxsda tashvish, ichki kuchsizlik va hatto kasbiy burnout (kasbiy tushkunlik)ni keltirib chiqarishi mumkin. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bu ziddiyatlarni konstruktiv hal etishga yo'naltirilgan psixologik qo'llab-quvvatlash tizimining mavjudligi katta ahamiyatga ega.

Zamonaviy raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri ham tobora kuchayib borayotganligi e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Bugungi talaba-yoshlar "raqamli avlod" (digital generation) vakillari bo'lib, ular axborot, muloqot va qadriyatlarni an'anaviy avlodlardan ko'ra ko'proq virtual muhitdan o'zlashtirmoqda. Bu holat oliy ta'lim muassasalariga yangi vazifani qo'yadi: talabaning onlayn va oflayn dunyolaridagi qadriyatlar uyg'unligini ta'minlashga yordam berish, raqamli muhitda ma'naviy-axloqiy yo'nalishni saqlab qolish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Yuqorida tahlil etilgan nazariy asoslardan kelib chiqib, oliy pedagogik ta'lim amaliyoti uchun quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

Birinchi tavsiya - oliy ta'lim muassasalarida qadriyat-refleksiv seminarlar va treninglarni joriy etish. Bunday mashg'ulotlar talabalarning o'z qadriyatlar tizimini ongli anglashi, ichki ziddiyatlarni tanish va konstruktiv hal etish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilishi lozim. "O'zimni pedagog sifatida kim deb bilaman?", "Mening uchun ta'limda nimalar muhim?", "Men qanday o'qituvchi bo'lmoqchiman?" kabi savollar atrofida tashkil etiladigan guruhdagi muhokamalar va individual esse yozish mashqlari juda samarali bo'lishi mumkin.

Ikkinchi tavsiya - emotsional intellektni rivojlantirishga yo'naltirilgan psixologik mashg'ulotlarni ta'lim dasturiga kiritish. "Pedagogik muloqot psixologiyasi", "Emotsional intellekt va kasbiy faoliyat" kabi maxsus kurslar, shuningdek, rolli o'yinlar va vaziyatli mashqlar asosida tashkil etiladigan amaliy mashg'ulotlar talabalarning empatiya va his-tuyg'ularni boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Uchinchi tavsiya - ustoz-shogirdlik (mentorlik) institutini mustahkamlash. Tajribali, ma'naviy-axloqiy sifat-lari yuksak pedagoglar va bo'lajak o'qituvchilar o'rtasida tizimli mentorlik dasturlarini yo'lga qo'yish qadriyatlar uzatilishining samarali mexanizmi bo'lib xizmat qiladi. Ustoz nafaqat kasbiy bilim beradi, balki o'z pedagogik qadriyatlarini kundalik amaliyotda namoyon etib, talabaga jonli namuna bo'ladi.

To'rtinchi tavsiya - pedagogik amaliyotni ta'lim jarayoniga erta va izchil kiritish. Bo'lajak pedagoglarning 1-kursdan boshlab real maktab muhiti bilan tanishib, asta-sekin mustaqil pedagogik faoliyat yuritishga o'rganishi kasbiy identifikatsiyaning erta shakllanishiga, shu orqali esa pedagogik qadriyatlar tizimining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Beshinchi tavsiya - milliy-madaniy qadriyatlarni zamonaviy pedagogik-psixologik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirib o'qitish. O'zbekiston milliy qadriyatlari - insonparvarlik, mehnatsevarlik, kattalarni hurmat qilish, jamoachilik - zamonaviy pedagogik psixologiyaaning universal qadriyatlari bilan uyg'un holda ta'lim dasturlarida yoritilishi bo'lajak pedagoglarning qadriyatlar tizimida ichki uyg'unlik ta'minlanishiga yordam beradi.



Oltinchi tavsiya - bo'lajak pedagoglarga individual psixologik-pedagogik maslahat xizmatini tashkil etish. Har bir talabani qadriyatlar tizimidagi o'ziga xosligini inobatga olgan holda, individual maslahat suhbatlari va kasbiy yo'naltirish ishlari samarali natijalar berishi mumkin.

Yettinchi tavsiya - o'quv jarayonida axloqiy-etik muammolarni muhokama qilish uchun maxsus platforma yaratish. "Pedagogik etika kazuslari", "Qiyinchilik vaziyatlarida pedagog" kabi seminar-muhokamalarda talabalar real hayotiy vaziyatlar orqali o'z qadriyatlar pozitsiyasini sinab ko'radi, boshqalar bilan taqqoslaydi va mustahkamlaydi. Bu esa qadriyatlarning nazariy bilimdan amaliy e'tiqodga aylanish jarayonini tezlashtiradi. Bundan tashqari, ta'lim muassasasida sog'lom korporativ madaniyatni shakllantirish - o'qituvchilar o'rtasidagi professional hamkorlik, o'zaro hurmat va qo'llab-quvvatlash muhitini yaratish - ham bo'lajak pedagoglar qadriyatlar tizimiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maqolada tahlil etilgan nazariy asoslar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak pedagoglarda qadriyatlar tizimining shakllanishi ko'p omilli, murakkab va uzoq davom etadigan jarayondir. Bu jarayonda kognitiv, emotsional-motivatsion, ijtimoiy-madaniy va shaxsiy-identifikatsion omillar o'zaro bog'liq holda ta'sir ko'rsatadi va yaxlit psixologik tizimni hosil qiladi. Ushbu omillardan birortasini ham e'tibordan chetda qoldirish bo'lajak pedagogning qadriyatlar tizimini bir tomonlama yoki barqaror bo'lmagan holda shakllantirishga olib kelishi mumkin.

Kognitiv omillar - tanqidiy fikrlash, refleksivlik, kognitiv murakkablik - bo'lajak pedagogga o'z qadriyatlari haqida ongli, asoslangan pozitsiyaga ega bo'lish imkonini beradi. Emotsional-motivatsion omillar - emotsional intellekt, empatiya, ichki motivatsiya - qadriyatlarni shaxsiy hayot va kasbiy faoliyat bilan bog'lovchi ko'priklar yaratib beradi. Ijtimoiy-madaniy omillar - oila, milliy an'analar, ta'lim muhiti - qadriyatlarning asosiy mazmunini va yo'nalishini belgilaydi. Shaxsiy-identifikatsion omillar esa - kasbiy identifikatsiya, vaqt perspektivasi, shaxsiy o'sish - qadriyatlar tizimini barqaror va izchil qiladi, uni bo'lajak pedagogning "Men"-konsepsiyasiga chuqur ildiz o'ttirib beradi.

O'zbekiston kontekstida bu jarayonning o'ziga xos jihatlari ham mavjud: milliy-madaniy an'analar, oila va "mahalla" instituti, ijtimoiy muhitning ta'siri universal psixologik qonuniyatlar bilan uyg'unlashib, o'zbekistonlik bo'lajak pedagogning qadriyatlar tizimini shakllantirishda alohida rol o'ynaydi. Bu hol mahalliy oliy pedagogik ta'lim muassasalarida psixologik-pedagogik dasturlarni ishlab chiqishda milliy-madaniy kontekstni albatta hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. G'arb modellarini aynan ko'chirish emas, balki ularning eng samarali jihatlari milliy qadriyat tizimimiz bilan uyg'unlashtirib qo'llash - zamonaviy o'zbek pedagogika psixologiyasining muhim metodologik tamoyili bo'lishi lozim.

Maqolada tahlil etilgan omillar asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar - refleksiv seminarlar, emotsional intellektni rivojlantirish kurslari, mentorlik dasturlari, erta pedagogik amaliyot va individual psixologik maslahat - birgalikda bo'lajak pedagog qadriyatlar tizimining kompleks va izchil shakllanishiga xizmat qiladi. Bu tadbirlarni alohida-alohida emas, balki ta'lim dasturining yaxlit tizimi sifatida amalga oshirish muhim.

Bo'lajak o'qituvchilarda mustahkam, ichki uyg'un va pedagogik qadriyatlarga yo'naltirilgan tizimni shakllantirish - bu nafaqat individual darajadagi vazifa, balki butun ta'lim tizimi uchun strategik ahamiyatga ega jarayondir. Chunki yosh avlodga bilim va tarbiya beradigan pedagog o'zining qadriyatlar tizimi orqali nafaqat sinf muhitini, balki kelajak avlodning ma'naviy-axloqiy qiyofasini ham shakllantiradi. Bu mas'uliyatni anglab yetgan pedagog o'z kasbining haqiqiy ma'nosini - nafaqat bilim beruvchi, balki insoniylikning davomchisi va asrovchisi sifatidagi rolini - to'la his etadi.

Kelgusi ilmiy ishlar bo'lajak pedagoglarning qadriyatlar tizimiga ta'sir etuvchi omillarni turli yoshdagi va turli ta'lim muassasalaridagi talabalar misolida solishtirma tahlil qilishga, shuningdek, ishlab chiqilgan tavsiyalar asosida eksperimental dasturlarni amalga oshirish va ularning samaradorligini baholashga yo'naltirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Shu bilan birga, raqamli muhit, globallashuv va madaniyatlararo ta'sirlarning tobora kuchayib borayotganligi sharoitida bu mavzu o'z dolzarbligini yanada oshirib boradi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, bo'lajak pedagogning qadriyatlar tizimi uning kasbiy faoliyatining nafaqat axloqiy asosi, balki psixologik kuchining manbayi hamdir. O'z qadriyatlarini aniq biladigan, ularni kuchli his etadigan va kundalik faoliyatida izchil amalga oshira oladigan o'qituvchi - bu zamonaviy ta'limning eng zarur subyekti. Bunday o'qituvchini tayyorlash esa pedagogika psixologiyasi fanining ham, oliy pedagogik ta'lim tizimining ham eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Allport, G. W. (1961). Pattern and growth in personality. Holt, Rinehart and Winston.
2. Bandura, A. (1977). Social learning theory. Prentice-Hall.
3. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (2000). The "what" and "why" of goal pursuits: Human needs and the self-determination of behavior. Psychological Inquiry, 11(4), 227-268.



4. Dewey, J. (1933). How we think: A restatement of the relation of reflective thinking to the educative process. D. C. Heath.
5. Egamberdiyeva, N. A. (2018). Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik yo'nalishini shakllantirish. Pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasi. Toshkent davlat pedagogika universiteti.
6. Erikson, E. H. (1968). Identity: Youth and crisis. Norton.
7. G'oziyev, E. G'. (2010). Yosh davrlari psixologiyasi. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti.
8. Goleman, D. (1995). Emotional intelligence: Why it can matter more than IQ. Bantam Books.
9. Hofstede, G. (2001). Culture's consequences: Comparing values, behaviors, institutions, and organizations across nations (2nd ed.). Sage Publications.
10. Karimova, V. M. (2008). Ijtimoiy psixologiya asoslari. Toshkent.
11. Kelly, G. A. (1955). The psychology of personal constructs (Vols. 1–2). Norton.
12. Leont'ev, A. N. (1977). Deyatel'nost', soznaniye, lichnost' [Faoliyat, ong, shaxs]. Politizdat.
13. Maslow, A. H. (1943). A theory of human motivation. Psychological Review, 50(4), 370–396.
14. Noddings, N. (2003). Caring: A feminine approach to ethics and moral education (2nd ed.). University of California Press.
15. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. (2020). O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
16. Qodirov, B. R. (2012). O'qituvchilik kasbiga yo'naltirishning psixologik asoslari. "Fan va texnologiya" nashriyoti.
17. Rokeach, M. (1973). The nature of human values. Free Press.
18. Rubinshteyn, S. L. (1946). Osnovy obshchey psikhologii [Umumiy psixologiya asoslari]. Uchpedgiz.
19. Ryan, R. M., & Deci, E. L. (2000). Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation, social development, and well-being. American Psychologist, 55(1), 68–78.
20. Schwartz, S. H. (1992). Universals in the content and structure of values. Advances in Experimental Social Psychology, 25, 1–65.
21. Schwartz, S. H. (2012). An overview of the Schwartz theory of basic values. Online Readings in Psychology and Culture, 2(1). <https://doi.org/10.9707/2307-0919.1116>
22. Super, D. E. (1990). A life-span, life-space approach to career development. In D. Brown & L. Brooks (Eds.), Career choice and development (2nd ed., pp. 197–261). Jossey-Bass.
23. Yo'ldoshev, M. M. (2020). Pedagogik ta'limda milliy qadriyatlar tizimini shakllantirish. Xalq ta'limi, 3, 45–52.
24. Zimbardo, P. G., & Boyd, J. N. (1999). Putting time in perspective: A valid, reliable individual-differences metric. Journal of Personality and Social Psychology, 77(6), 1271–1288.
25. Rogers, C. R. (1961). On becoming a person: A therapist's view of psychotherapy. Houghton Mifflin.
26. Fantalova, Ye. B. (2001). Diagnostika i psixoterapiya vnutrennego konflikta [Ichki ziddiyatni diagnostika qilish va psixoterapiyasi]. Bahrax-M.
27. Leontyev, D. A. (2003). Psikhologiya smysla: priroda, stroyeniye i dinamika smyslovoy realnosti [Ma'no psixologiyasi]. Smysl.
28. Karimova, V. M. (2008). Ijtimoiy psixologiya: nazariya va amaliyot. Toshkent: Universitet.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.